



ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 14- iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 16- iyun 2026 yil

KEYWORDS

“Mehribonlik” uylari, yetim bola, “Ezgu maqsad”, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, SOS – Bolalar mahallalari”, O‘zbekiston bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari.

O‘ZBEKISTONDA “MEHRIBONLIK” UYLARI TARBIYALANUVCHILARINING HUQUQIY HIMOYA QILINISH MEXANIZMLARI

Nodira Nabiyevna Safixodjayeva

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
“O‘zbekiston tarixi” kafedrası o‘qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20711866>

ABSTRACT

Ushbu maqolada muallif mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan ijtimoiy siyosat masalasi, ayniqsa davlatning to‘liq ta‘minotiga olingan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquqiy himoya qilinishi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tgan. Bolalarning yetim bo‘lib qolish sabablari va buning salbiy oqibatlariga ham e‘tibor qaratgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda mamlakatda ijtimoiy siyosat borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlar va yutuqlar masalasiga urg‘u bergan.

1. Dolzarbligi

Butun dunyo bo‘ylab bugungi kunda 8 mln bola “Mehribonlik” uylarida yashab tarbiyalanmoqda. Afsuski, mazkur bolalarning 80-90 foizining ota-onasidan biri yoki har ikkalasi ham tirik[1]. Ota-onalari tirik bo‘la turib, bolalarning “tirik yetim” bolaga aylanishlari achinarli holdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘plab bolalar qashshoqlik, korrupsiya va jamiyat resurslarining yetishmasligi tufayli uzoq muddatga yoki butunlay yetimxonalarda qolib ketishadi. Bu hol ko‘pincha baxtsiz hodisa tufayli emas, balki ijtimoiy falokat natijasida yuz beradi. Shu sababdan jahonda Bolalar uylarini tashkil qilish, ularning mustaqil yuridik shaxs sifatida tan olinishi, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga mehr-muruvvat, insonparvarlikning alohida o‘rni masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilishi muhim ekanligi nazarda tutilib, O‘zbekistonda ham hozirgi kunda “Mehribonlik” uylari faoliyatini takomillashtirish, xo‘jalik yuritish, ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, bu jarayonda uchraydigan muammolar sabablarini o‘rganish yuzasidan keng ko‘lamli tadqiqot ishlari olib borish taqozo etilmoqda.

2. Metodlar.

Maqola umum e‘tirof etilgan metodlar, jumladan tarixiy-taqqoslash, qiyosiy-tahlil, tizimlashtirish, sotsiologik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy himoya tizimining yo‘lga qo‘yilishi, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquqiy himoya qilinishi, qo‘llab-quvvatlanishi hamda kelajakda jamiyatga ijtimoiylashuvida turli muammolarga duch kelishining oldini olish maqsadida hukumat tomonidan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan ko‘plab qonun va

farmonlar hamda bir qator boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati ochib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillardan ijtimoiy himoya masalasiga katta e'tibor qaratdi. Aholi orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan qatlamlar, ya'ni, kam ta'minlangan oilalarga, boquvchisini yo'qotgan oilalarga, ko'p farzandli oilalarga, shuningdek, kutilmagan sabablarga ko'ra yetim bo'lib qolgan bolalar, imkoniyati cheklangan shaxslar va keksalarni har tomonlama muhofaza qilish hukumatning asosiy e'tiborida bo'ldi. Zero, o'zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan qadriyatlari, urf-odatlar, madaniyati zaminida ham muhtojlarga yaxshilik qilish, insoniylik, bag'rikenglik, mehr-shafqat kabi fazilatlar yotadi. Islom dinining muqaddas manbalari hisoblangan Qur'oni Karim hamda Hadisi Shariflarda ham o'z e'tiqod qiluvchilarini yetim-yesirlarga, nochorlarga rahm-shafqat qilishga, ularga hamisha ko'mak berishga chaqiruvchi oyat va hadislarda quyidagilar keltiriladi: "Qalbing muloyim, hojating ravo bo'lishini xohlaysanmi? Xohlasang yetimlarga mehribon bo'l, ularning boshlarini sila, o'z taomingdan yedir, shunda diling erib, hojating ravo bo'lur", "Allohning nazdida uylarning yaxshirog'i yetimlar izzat qilinadigan uydir", "Kimki o'zining yoki birovlarining yetim bolalarini to'voyaga yetib mustaqil hayot kechiradigan bo'lgunlaricha tarbiya qilsa, unga jannat muqarrardir"[2].

Ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan ijtimoiy ta'minot tizimini isloh qilish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirishga bog'liq. O'zbekistonda bolalarni zo'ravonlik, ekspluatatsiya, shafqatsiz va kamsituvchi muomaladan himoya qilish, milliy me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish borasida muhim islohotlar izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Paxta yig'im-terimida muntazam bolalar mehnatidan foydalanishga barham berildi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni, shuningdek, nogironligi mavjud bo'lgan bolalarni ta'lim-tarbiya olishlari uchun internat muassasalariga joylashtirishni kamaytirish va oldini olish maqsadida bolalarni deinstitsiyalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahalliy va milliy darajadagi siyosatni ishlab chiqishda bolalar va yoshlarni o'z manfaatlariga ta'sir qiladigan qarorlarni qabul qilishda ularning fikrini inobatga olgan holda jalb qilish amaliyoti va mexanizmlarini kuchaytirish zarur, bu bolalar va yoshlarning jamiyatdagi ishtiroki uchun huquqiy bazani kengaytiradi. Bu, o'z navbatida, tinglanish va jamoatchilik fikrini shakllantirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi[3]. Ayniqsa, institusional muassasa tarbiyalanuvchisi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tug'ilishi istalmagan bolalar ota-onalariga kerak bo'lmay qolishi yoki er va xotin o'zaro ajrimga kelganda farzandlarning aksariyat holatlarda onada qolishi hamda ona bolani tarbiyalash uchun vositalar va shart-sharoitga ega bo'lmaganligi sababli undan qachonlardir, hayot yaxshilanib o'z iziga tushganda qaytib olish to'g'risidagi umid bilan "tilxat berib" voz kechadi. Garchi, yetim qolgan bolalar davlatning to'liq ta'minotiga olinib, "Mehribonlik" uylarida ular uchun yetarli sharoitlar, g'amxo'rlik, tegishli tibbiy xizmat ko'rsatib kelinishiga qaramay, bu bolalarning rivojlanishi gospitalizm sindromi – kommunikativ-hissiy aloqalarning yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan oqibatlar tufayli xiralangan bo'ladi, bunday bolalar odatda, faqat intellektual jihatdan emas, balki jismoniy rivojlanishda ham orqada qoladilar, ularning tili kechroq chiqadi, keyinroq ularda muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar namoyon bo'la boshlaydi, bu qiyinchiliklarni har doim ham, hatto yuqori malakali tibbiy-pedagogik korreksiya

yordamida ham bartaraf etib bo'lmaydi. Oilaning bola hayotida naqadar muhimligi shunda ko'rinadiki, oila bolalarning ijtimoiylashuviga faqatgina o'zining mavjudligi bilan emas, balki qulay axloqiy-ruhiy holati, barcha a'zolari o'rtasidagi sog'lom munosabatlar orqali ta'sir o'tkazadi.

Biroq oila muhitidan mahrum bo'lgan bolalarni maxsus tarbiya muassasalariga joylashtirilishini vaziyat taqazo etadi. Chunki yetim bolalar ta'lim-tarbiya olishlari, turli zo'rvonliklar, odam savdosi hamda tashqi turli salbiy ta'sirlardan ularni asrash uchun davlat tarafidan bolalar uylari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Mustaqillikning eng asosiy jihatlardan biri shunda ediki, hukumatda "Mehribonlik" uylarining ijtimoiy himoya tizimiga bo'lgan munosabatlar tubdan o'zgardi. Ijtimoiy himoya masalasida davlatning roli va o'rni yanada ortib bordi. Shu bilan birga, bu jarayonda nodavlat tashkilotlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning ishtiroki ham oshib bordi. Natijada, "Mehribonlik" uylarini ijtimoiy himoya qilishda nafaqat davlatning balki, nodavlat va notijorat tashkilotlarining, shuningdek, tadbirkorlarning o'rni sezilarli darajada kengaydi. Bugungi kunda, O'zbekistonda "Mehribonlik" uylarining faoliyati tugatilib, o'rniga oilaviy muhitga yaqinlashtirilgan oilaviy bolalar uylari tashkil etilgan bo'lsada, o'z davrida "Mehribonlik" uylari o'sha davr taqazosi va talabiga ko'ra, muhim ahamiyatga ega bo'lgan. O'tgan har bir davr yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'z davriga mos usullariga asosan faoliyat olib boradi. Demak aytish mumkinki O'zbekiston mustaqilligi yillaridagi "Mehribonlik" uylarining faoliyati va ijtimoiy muhofazasi o'ziga xos, yangilangan hamda takomillashtirilgan holda olib borilgan.

O'zbekiston hukumati yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy muhofazasini yaxshilash bo'yicha turli tadbirlarni amalga oshirmoqda. Birgina 2019 yilning o'zida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan ikkita asosiy hujjat qabul qilindi. Birinchisi, 2019-yil 11-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Yetim bolalar hamda ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4185-sonli qaror edi[4]. Ushbu qaror yetim va qarovsiz bo'lib qolgan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning muassasalarni tamomlab chiqqanlaridan so'ng jamiyat hayotiga moslashuvini yaxshilash maqsadida qabul qilingan. Ikkinchi hujjat esa, 2019-yil 30-sentyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash, oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-824-son qarori hisoblanadi[5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Hozirgi kunda mamlakatimizda alohida e'tiborga muhtoj 18 yoshgacha bo'lgan 150 ming nafar farzandlarimiz bor. Ularning ta'lim olishi, aniq bir kasbni egallashi uchun ko'maklashish, og'ir kasallikka chalinganlarini davolash, chin yetimlarga hayotda o'z o'rnini topishga yordam berish, uy-joy bilan ta'minlash – nafaqat vazifamiz, avvalo, insoniy burchimizdir" – degan so'zlari mazkur masalaga eng yuqori darajadagi e'tibordan darak beradi[6].

O'zbekistonda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish borasida bir qator vazifalar asosida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida "Mehribonlik" uylari davlat internat muassasalari maqomida faoliyat yuritdi. Ta'lim va tarbiya berishga ixtisoslashgan markazlarga aylantirilib, bu muassasalarda ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, xo'jalik faoliyatini samarali yuritish, shuningdek, tibbiy va psixologik xizmat ko'rsatish sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning izchil va tizimli ravishda amalga oshirilishi uchun tegishli me'yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi. Bu esa "Mehribonlik" uylari faoliyatini zamon talablari darajasida tashkil qilish va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilib keldi. Shu bilan birga, "SOS – Bolalar mahallalari", O'zbekiston bolalar shaharchalari va oilaviy bolalar uylari tashkil etildi. Bu esa yetim bolalarning oilaviy muhitga yaqin sharoitda tarbiyalanishi uchun qulay imkoniyat yaratib berdi.

"O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilishning keng institusional mexanizmi shakllangan bo'lib, ushbu mexanizm silsilasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, mahalliy xalq deputatlari Kengashlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, ijro etuvchi hokimiyatga qarashli boshqa davlat tuzilmalari, shuningdek, hokimliklar, sudlar, prokuratura organlari, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, qolaversa o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlaridan tashkil topgan"[7].

Mustaqillik yillarida "Mehribonlik" uylariga berilayotgan ijtimoiy yordam nafaqat davlat tomonidan, balki nodavlat-notijorat tashkilotlar tomonidan ham berib kelinganini O'zbekiston milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlardan ham ko'rish mumkin. Mustaqillik yillarda keng faoliyat olib borgan "EKOSAN" xalqaro jamg'armasi, "Sog'lom avlod uchun", "Navro'z", "Mahalla", "Bolalar" mahalliy nodavlat jamg'armalarining xayriya ishlari e'tiborga molikdir. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan tashkilotlar bir qator tadbirlarni amalga oshirib keldi. Xususan, "Mehribonlik" uylari, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun tashkil etilgan muassasalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu tashkilotlar kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash va jamiyatdagi tenglik tamoyillarini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi[8].

Dunyoda eng yirik xayriya va homiylik jamg'armalaridan biri – bu shubhasiz, "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) hisoblanadi. Mazkur jamg'arma BMT Bosh Assambleyasining 1946-yil 11-dekabrda qarori bilan tashkil etilgan. Dastlab YUNISEF Ikkinchi jahon urushida zarar ko'rgan bolalarga yordam berish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, 1953-yilda tashkilot o'zining faoliyatini o'zgartirdi va kengaytirdi. Endilikda YUNISEF dunyoning 157 mamlakatida o'z dasturlarini amalga oshirib kelmoqda. Tashkilot, asosan, individual, korporativ va davlat donorlarining ixtiyoriy yordamlari, shuningdek, xayriya tashkilotlarining mablag'lari va boshqa jamg'armalar faoliyati bilan bog'liq. Hozirgi kunda YUNISEF bolalarni boqish va tarbiyalash uchun oilani qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy yetimlarning sonini kamaytirish, davlat maktab-internatlarining bitiruvchilari va o'z oilalarida yashamaydigan nogiron bolalarni qo'llab-quvvatlash, ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shu bilan birga, jamiyatdagi kamsitishlarga qarshi kurashish, ularning qobiliyatlari, sog'ligi yoki irqidan, millatidan qat'iy nazar, bolalar huquqlarini himoya qilish"[9] kabi yo'nalishlarda ish olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, 1992-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng huquqli a'zosi bo'ldi hamda BMT tarkibidagi mavjud tashkilotlar bilan ham har tomonlama aloqalar olib bormoqda. Aynan YUNISEF jamg'armasi bunga misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 1999-yil 8-oktyabrdagi 01-1031-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborgan xatida Xalq ta'limi vazirligi YUNISEF bolalar jamg'armasi tomonidan ajratilgan muruvvat yordamini ko'rib chiqib, bu muruvvat yordamlarini ehtiyoji mavjud bo'lgan ta'lim muassasalariga taqsimlashni taklif etadi. Ushbu taqsimotda Namangan viloyatidagi 26-son "Mehribonlik" uyiga rangli qalam 120 quti, kley 66 dona, rangli bo'yoq 24 paket, qalamlar 120 paket hamda Farg'ona viloyati Marg'ilon shahridagi 1-son "Mehribonlik" uyiga 170 quti rangli qalam, 85 dona kley, 30 paket rangli bo'yoqlar, 170 paket qalamlar ajratishni so'ragan va ana shu asosda so'ralgan muassasalarga yetkazilgan[10].

1999-yilda muruvvat yordami komissiyasi taqsimoti bo'yicha Namangan viloyatiga xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ajratgan insonparvarlik yordami yuborilgan. Namangan viloyati komissiyasi tomonidan viloyatning shahar, tumanlarida insonparvarlik yordamini o'z yo'nalishi bo'yicha ishlatilishi va aholining kam ta'minlangan qismiga shu jumladan, yetim-yesirlar, yakka-yolg'izlar va nochor oilalarga berilishi tekshirib borilgan. 1999-yil davomida viloyatga AQSH, Hindiston, Angliya, Daniya, Turkiya, Ispaniya, YUNISEF va BMT kabi xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan yuborilgan dori-darmonlar, bog'lov materiallari, tibbiy asbob-uskunalar, kiyim-kechaklar, qattiq hamda yumshoq jihozlar viloyat komissiyasining ishchi guruhi tomonidan koefisiyent asosida davolash profilaktika muassasalari, bolalar uylari, mehr-sahovat uylari hamda o'quv muassasalariga taqsimlangan[11].

2000-yilda aholiga, "Mehribonlik" uylari va ixtisoslashtirilgan bolalar muassasalariga "Sog'lom avlod uchun" jamg'armasi tomonidan 3 600.000 AQSH dollari va 19 436 497 so'mlik xayriya tadbirlari amalga oshirildi. "Navro'z" jamg'armasi tomonidan 83.09 mln.so'mlik xayriya yordami ko'rsatildi.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish va ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to'laqonli ishtirokini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi insonparvarlik tamoyillariga asoslangan siyosat yuritmoqda. Bu siyosat 2017-2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishiga muvofiq shakllantirilgan "Harakatlar strategiyasi" doirasida amalga oshirilmoqda. Xususan, "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" nomi bilan e'lon qilingan davrda ushbu yo'nalishlarga muvofiq Davlat dasturi" ishlab chiqildi.

Dastur doirasida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslarni va oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularning siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga integratsiyasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish vazifalari aniq belgilandi. Shu maqsadda, 2017-yil 14-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat Jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3135-son qarori qabul qilindi, shuningdek, 2017-yil 19-oktyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat fondi faoliyatini yanada tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-853-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorlar asosida "Ezgu maqsad" xalqaro xayriya jamoat jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'arma aholi orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarni qo'llab-quvvatlash, ularning turmush sharoitlarini yaxshilash, shuningdek, davlat tomonidan yuritib kelinayotgan insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqqan holda izchil ijtimoiy yordam ko'rsatish vazifasini

bajaradi. "Ezgu maqsad" jamg'armasining tashkil etilishi ijtimoiy himoya tizimini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash, davlat hamda jamiyatning muhim ijtimoiy masalalariga jamoaviy yondashuvlarni kuchaytirishga xizmat qiladi. "Ezgu maqsad" jamg'armasining asosiy vazifalari etib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilari va oilalari sog'lig'ini himoya qilish, yetim, ota-onasining yoki yaqin qarindoshlarining qarovidan mahrum bo'lgan bolalar va "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilariga, shu qatorda, "Sahovat" hamda "Muruvvat" uylarida yashovchi bolalar va qariyalarga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan ishlar belgilandi.

4. Xulosa.

Umuman olganda mustaqillik yillarida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamiga nisbatan amalga oshirilgan ijtimoiy siyosatning negizida albatta insonlarga munosib turmush sharoitini yaratib berish maqsadi turadi. Ayniqsa davlatning to'liq qaramog'iga olingan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni himoya qilish masalasi doimo bosh maqsadlardan bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida bolalar, shuningdek, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turli zo'rvonlik, tajovuzlardan saqlash va himoya qilish maqsadida Bolalar ombudsmani lavozimi joriy etilganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zaminida inson omili va uning farovon hayoti turadi.

Foydalanilgan manbaa va adabiyotlar ro'yxati:

1. "Every child needs the love of family", Global Child Advocates. /<https://globalchildadvocates.org/socialorphans>.
2. Ijtimoiy himoyaga oid Qur'oni Karim oyatlari va Hadislardan namunalar. To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar K.Komilov, D.Maqsudov. Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. – B. 40.
3. O'zbekistondagi bolalar vaziyatining tahlili. 2019/2020. Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar fondi. Toshkent, 2020. – B. 7 /<https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3401/>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-fevraldagi "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4185-son qarori. /<https://lex.uz/ru/docs/4199119>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentyabrdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash, oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-824-son qarori. /<https://lex.uz/uz/docs/4532493>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. /<https://president.uz/oz/lists/view/4057>.
7. Ganibaeva Sh.K. "Yuvenal yustisiya: Xalqaro standartlar va O'zbekistonda qo'llash masalalari". O'quv amaliy qo'llanma. –T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – B. 38.
8. O'z MA M-37-fond, 1-ro'yxat, 3485-yig'ma jild, 51-varaq.
9. Abdullayev D. O'zbekistonda xayriya va homiylikning rivojlanishi tarixi (XIX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida). Tarix fanlari falsafa doktori (PhD) diss.– Toshkent, 2019. – B. 26.

10. O'z MA M-37-fond, 1-ro'yxat, 4432-yig'ma jild, 66-67-varaqlar
11. O'z MA M-37-fond, 1-ro'yxat, 5412-yig'ma jild, 68-69-varaqlar.
12. O'z MA. M-37-fond, 1-ro'yxat, 5486-yig'ma jild, 37-varaq.



INNOVATIVE
ACADEMY